

## JADIDLAR PEDAGOGIK QARASHLARIDA MA'RIFATPARVARLIK VA BARKAMOL AVLOD TARBIIYASI MASALALARI

Ramazonova Salomat Saidovna

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada ta'lim - tarbiya tizimini tashkil etish jarayonida pedagogik axloqiy tarbiyalashda jadid marifatparlik harakati namoyondalarining pedagogik ilmiy merosining o'ri va ahamiyati masalasi yoritib berilgan. Jadidlarning ko'plab ta'lim - tarbiyaga oid asarlaridagi qarashlari va ulardan hozirgi globallashuv davrida yosh avlodi tarbiyalashdagi ta'sir etish imkoniyatlari o'rganildi.

**Kalit so'zlar:** Jadid, jadidlar, mafkura, ma'rifatparvarlik, sho'ro tuzimi, ta'lim- tarbiya

**Abstract:** In The process of organizing the educational system, the role and importance of the pedagogical scientific heritage of the representatives of the modern Enlightenment movement in pedagogical moral education is highlighted. The views of Jadids in many works on education and their influence on the education of the young generation in the current globalization era were studied.

**Key words:** Jadid, Jadids, ideology, enlightenment, Shura system, education

Ma'lumki, o'z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, Turkiston o'lkasini ma'naviy va ma'rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jadidlar g'oyalari o'lka xalqlari tarixida muhim ro'l o'ynagan. Aslida jadid so'zi (arabcha "jadid"-yangi) yangilanish ma'nosini anglatib, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tadbiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat, shu oqim tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o'lka xalqlarining milliy mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomalarida aytganidek, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini o'uncha ko'p anglab yetadi. Darhaqiqat, XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar nomoyondalari, Turkistonda jadidchilik harakatining faol tashkilotchi - ishtirokchilari haqida to'xtaladigan bo'lsak, bular: Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy, Saidahmad Siddiqiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jaev, Usmonxo'ja Po'latxo'jaev, Abdulvohid Burxonov, Sadridin Ayniy, Abudulqodir Muxiddinov, Obidjon Mahmudov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho'lpon, Ishoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda, Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboovun Salimovlar nomini birinchilar safida keltirishimiz mo'mkin.

Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar. Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor Turkistonni o'rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni,

millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish hamda ma'rifatparvarlik kabi masalalar edi. Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidlar maqsadni jamiyatni yangilamoq ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa, yetishtirmoq lozim. Eski an'anaviy usulda bu ishni amalga oshirish qiyin. Chunki zamon o'zgargan. U tezkorlikni talab qiladi. Bugungi o'quvchi tarix, jug'rofiya, iqtisod, fizika, kimyo, matematika kabi zamonaviy fanlarni bilishi kerak.

Bugungi kunda jadidlarni olib brogan faoliyati keng jamoatchilik tomonidan turli muhokama va bahslarni vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Aslida jadidchilik harakati faqatgina Turkistonda vujudga kelmagan. Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga kelishi XIX asrning 80 yillarida Rossiya musulmonlari, Kavkaz va Volga bo'yida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik harakatining bevosita ta siri va samarasi natijasida dunyoga kelgan harakatdir.

XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida Turkistondagi ijtimoiy - siyosiy va falsafiy dunyorashlarning shakllanishida eng avvalo, kelajak millat yoshlarini tarbiyalash va yangi usuldagi ta'lim sohasidan foydalanish masalasi maqsad qilgan. Dastlab ular xususiy jadid maktablarini ochib, ta'lim berishgan bo'lsalar, keyinchalik bunday jadid maktablari o'lka bo'ylab keng quloq ochib yoyila boshladi. 1910 yilga kelib, "usuli jadid", ya'ni jadid maktablari yopildi. Ammo hukumat tomonidan olib borilgan jadidchilik harakatini susaytirish maqsadida olib borgan bunday siyosati o'zini oqlamadi, maktablar yopilishi bu harakatni susaytirmadi, aksincha yanada rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qildi. Ammo jadidchilik harakatiga nisbatan munosobat mustaqillikka erishganimizdan keyingi yillarda o'z mavqeini tiklab bordi.

Jadidchilik harakati namoyondalarining asosiy maqsadi dunyoviy ilmlarni egallagan barkamol yosh avlodni tarbiyalash va ularning manaviy ongini oshirish, o'z vazifasini o'tay olmay qolgan eskicha talim tizimi sohasiga yangicha yangi ijodiy g'oyalarni sindirish edi. Bundan tashqari bu harakat vakillari aholining ijtimoiy hayot tarzini zamonaviy hayotga moslashtirish, milliy - zamonaviy armiyani joriy etish, diniy, dunyoviy, ahloqiy normalarni hisobga olgan holda yangi qonunchilik konsepsiyasini ishlab chiqish va joriy etish, mamlakatning boshqaruv tizimi isloh qilish, hududiy tarqoqlikning oldini olish choratadbirlarini ishlab chiqish, jamiyat rivojlanishining barcha sohalari uchun zarur bo'lgan milliy kadrlarni tayyorlash, mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar o'rnatish va tashqi siyosat konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish borasida bir qator g'oyalarni ilgari surdilar.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Turkiston o'lkasida vujudga kelgan jadidchilik harakatining asosiy bosh maqsadi jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadigan yosh avlodni tarbiyalash orqali barcha jabhalarda innovatsion yangi pedagogik g'oyalar bilan aloqador bo'lgan islohatlarni joriy qilishdan iborat bo'lgan. Bu ishlarni amalga oshirish orqali jadidlar o'lka aholisining turmush tarzini tubdan o'zgartirish orqali ularning ma'naviy ongini rivojlantirishni o'zlarining asosiy dolzarb masala aylantirgan. Jadid ma'rifatparvarlarimiz Turkiston mintaqasida milliy - ozodlik harakatini ro'yobga chiqarish va rivojlantirish pozitsiyasining negizida jamiyatning siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy, ma'naviy- madaniy taraqqiyotini ta'minlash g'oyasini olib chiqdi. Ular o'z siyosiy faoliyatlarida milliy - istiqbolchilik g'oyalarni ilgari surdi. Bu jadidchilik harakati orqali biz jadid bobolarimizning Chor Rossiyasi hukumatining tajovuziga qarshi qaratilgan milliy -istiqbolchilik xarakteridagi kurashida ham ko'rishimiz mumkin.

Ma'rifatparvar bobolarimiz milliy rivojlanish bilan qaramlikka qarshi kurashmoq lozimligini o'z vaqtida anglay oldilar.

Bugun biz yuzma-yuz bo'lib turgan milliy g'oya asoslari, milliy mafkura masalalari bundan yuz yil oldin jadidchilarimiz tomonidan ham kun tartibiga qo'yilgan va qizg'in muhokama qilingan edi. Bunday g'oyalar bu harakat siyosiy faoliyatida qatnashgan jadidlar uchun muhim faoliyat vositasi bo'lib xizmat qildi. Shu sababli taraqqiyparvar jadid bobolarimiz ezilgan, haq huquqlar poymol etilgan Turkiston o'lkasi xalqlarini milliy ozodlik kurashiga chorlashda harakat qildilar, Ma'rifatga ehtiyoj, ilm-fanni egallash g'oyasi millatning ko'pchiligi tomonidan anglanishi kerak.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B 18.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.T:O'zbekiston.1999.B.385
3. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. 41-son Jadidchilik:isloxot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: “Universitet”, 1999. – B. 17.
4. M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. B108-109
5. Jadidchilik:isloxot,yangilanish,mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: “Universitet”, 1999. – B.18.